Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321095

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

8. Statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. 2022 y.
9. Statistika qo'mitasi. O'zbekistonda uy xo'jaliklari iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2022 y.
10. World Bank. Green Energy Transition Projects. 2022 y.
11. World Bank. Social Assistance and Poverty Reduction Programs. 2022 y.
Xalq banki. Uy xo'jaliklariga ajratilgan kreditlar bo'yicha hisobot. 2022 y.

QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING XORIJIY MEZONLARI

Nazirova Sayyora Baxtiyorovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
1-bosqich tayanch doktaranti
nazirovasayyora51@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqolada muallif qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari haqida o'z fikrini bildiradi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, sarmoya, kapital oqimi, infratuzilma, iqlim, samaradorlik, oziq-ovqat, siyosiy barqarorlik, mezon

Kirish

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq ravnaqi uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, xorijlik investorlar qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishga qaror qilishda bir qancha mezonlarga e'tibor berishadi. Bu mezonlar mamlakat investitsion muhitining jozibadorligiga bevosita ta'sir qiladi. Muvaffaqiyatli xorijiy investitsiyalar tajribasi boshqa mamlakatlar uchun referat hisoblanadi. Bu tajribalar qishloq xo'jaligining daromadli tarmoq bo'lishi, investitsiya xavfini kamaytirish va barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi.

Asosiy qisim

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga ko'ra, 2023-yilda jami 22 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan, bu avvalgi yilga nisbatan 1,8 barobar ko'payganligidan dalolat. 2003–2015 yillar mobaynida xorijiy davlatlar va xalqaro moliyaviy muassasalarning kredit va grant mablag'lari hisobidan umumiy kredit qiymati 1310 mln AQSh dollarilik 36 ta investitsion loyiha doirasida 760,4 mln dollarlik ishlar bajarilib, 1635 tadan ortiq har xil gidrotexnik inshootlar, 262 km uzunlikda sug'orish tarmoqlari qurildi, 274 km xo'jaliklararo kollektorlar, 745 km ichki xo'jalik kollektorlar va 553 km yopiq yotiq drenajlar rekonstruksiya qilindi, 1174 ga maydonda lazerli tekislash ishlari amalga oshirildi, 264 ta ekskavator, 51 ta buldozer, 8 ta zemsnaryad, 4 ta gidroturbina, 56 dona yirik nasos agregatlari olib kelingan. Mamlakatimiz raxbari o'z ma'ruzalarida xalqaro moliya institutlari mablag'laridan

Published: 23.12.2024
Cite this article: Nazirova Sayyora Baxtiyorovna (2024). Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321095
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

samarali foydalanish va ularni o‘z vaqtida o‘zlashtirish, ushbu mablag‘larni ustuvor ravishda ijtimoiy, infratuzilma hamda suv xo‘jaligi loyihalariga yo‘naltirish zarurligi shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilatotganligi haqida fikrlarni ta’kitlab keladilar. O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-5853-son qabul qilinishi ushbu vazifalarni izchil amalga oshirish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi



Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2023-yilda O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 16 foizga — 2,6 mlrd dollardan 2,2 mlrd dollargacha qisqardi. Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligining YAIMga nisbati tarixiy maksimum — 8,6 foizga yetdi (7,8 mlrd dollar)

Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari mavjud bo‘lib bugungi kunda barcha mamlakatlar aynan mana shu mezonlar asosida investorlarni jalb qilish va bu yo‘nalishlarda mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil qilishi zarur.

Xorijiy investorlar qishloq xo‘jaligida izlayotgan mezonlar quydagilarni o‘z ichiga oladi

- Siyosiy barqarorlik: Investitsiyalar uzoq muddatli bo‘lgani uchun siyosiy muhit barqaror bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Siyosiy noaniqliklar investorlarni asabiylashtiradi va investitsiya qarorlariga salbiy ta'sir qiladi.

- Huquqiy baza: Qishloq xo‘jaligiga oid qonunlarning ravshanligi, shaffofligi va investorlar uchun qulayligi investitsiya ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanadi. Murakkab va o‘zgaruvchan qonunlar investorlarni to‘xtatadi.
- Yerga egalik qilish: Yerga egalik holati investitsiya ishonchliligining muhim ko‘rsatkichidir. Aniq va xavfsiz yerga egalik qilish investorlarga uzoq muddatli rejalar tuzish imkonini beradi.
- Suv resurslari: Sug‘orish tizimlarining holati va suvning mavjudligi qishloq xo‘jaligi uchun, ayniqsa qurg‘oqchil hududlarda juda muhimdir. To‘g‘ri va ishonchli suv ta’minoti qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining uzluksizligini ta’minlaydi.
- Infratuzilma: Transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotlarni bozorlarga olib chiqishni osonlashtiradi.
- Soliq tizimi: investitsiyalar bo‘yicha soliqlarning oqilona darajasi investorlarni jalb qiladi. Yuqori soliqlar investitsiyalarning rentabelligini pasaytiradi.
- Qo‘llab-quvvatlovchi siyosat: Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash sarmoyadorlarning daromadlilik umidlarini oshiradi.
- Bozorga kirish: ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga tashishning qulayligi investitsiya barqarorligini ta'minlaydi.
- Malakali ishchi kuchi: Qishloq xo‘jaligi sohasida bilimli va tajribali ishchi kuchining mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.
- Texnologik infratuzilma: Qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hosildorlik va sifatni oshiradi.
- Atrof-muhitning barqarorligi: sarmoyaning atrof-muhitga zarar bermasligi va barqaror qishloq xo‘jaligi tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash bugungi kunda investorlar uchun muhim mezonga aylandi.

Qishloq xo‘jaligiga investitsiya jalb qilish bo‘yicha xorij tajribalari

Xorijiy investorlar uchun qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan dastlabki 14 davlat

N	Davlat nomi	Gektar	Ulushi %
1	Avstraliya	4.946.381	14,20%
2	Sudan	3.454.429	9,90%
3	Rossiya	3.041.213	8,70%
4	Braziliya	2.936.854	8,40%
5	Fillipin	1.750.000	5,00%
6	Mozambik	1.583.149	4,50%
7	Janubiy Sudan	1.425.300	4,10%
8	Tanzaniya	1.084.076	3,10%
9	Efiyopiya	1.042.600	3,00%
1	Ukraina	997.600	2,90%
1	Argintina	961.552	2,80%
1	Uganda	869.410	2,50%
1	Syerra-Leone	705.450	2,00%
1	Marokash	700.000	2,00%
1	Boshqa davlatlar	9.306.930	26,70%
Jami 34.804.944			100,00%

Manba: GRAIN | GRAIN releases data set with over 400 global land grabs

Xulosa

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklar hisoblannib qishloq xo‘jaligiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim imkoniyatdir. Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub’yektlarini sug‘urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo‘lida tashkil etiladi. Biroq, ushbu sarmoyalarni jalb qilish uchun mamlakatlar xorijiy investorlar izlayotgan mezonlarga javob berishi va sarmoyaviy muhitni doimiy ravishda yaxshilashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Investitsiya**: Darslik / J.R.Zaynalov, S.S.Aliyeva, N.X.Ruzibayeva va boshq;. -T.: «Iqtisod-Moliya», 2020.
2. Rezyume Globalnыy innovatsionnыy indeks — 2022. Daren Tang, Generalnыy direktor Vsemirnoy organizatsii intellektualnoy sobstvennosti (VOIS). – S. 4.
3. https://lex.uz/docs/-4567334
4. https://gov.uz/oz/news/view/4038
GRAIN | GRAIN releases data set with over 400 global land grabs

QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSIYALARNING O‘RNI

Sherqo‘ziyeva Umida Ulug‘bek qizi
Guliston davlat universiteti magistri

Kirish.

O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida qishloq xo‘jaligi sektori juda katta ahamiyatga ega. Aholining katta qismi qishloq xo‘jaligida ishlaydi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari mamlakat eksportining muhim qismini tashkil qiladi. Biroq, so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida mavjud muammolar — suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o‘zgarishlari, erlarning samarali ishlatilmasligi kabi omillar — ushbu sektorni rivojlantirishni murakkablashtirmoqda. Shu sababli, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va samarali boshqarish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda, bu esa sektorda yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, qishloq xo‘jaligini yanada samarali va barqaror qilishga yordam beradi.

Innovatsiyalar va ularning qishloq xo‘jaligiga ta'siri

1. Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari. Raqamli texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, raqamli monitoring tizimlari va Internet of Things (IoT) texnologiyalari yordamida qishloq xo‘jaligi faoliyatlari — sug‘orish, urug‘lar va pestitsidlar bilan ishlash, mahsulotlarni yig‘ish va saqlash — ancha samarali boshqarilishi mumkin. "Agro 2.0" kabi raqamli platformalar qishloq xo‘jaligini yanada shaffof va samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. O‘zbekistonda "Agrobank" kabi tashkilotlar qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali fermerlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratdi.

2. Yangi qishloq xo‘jaligi texnologiyalari. Texnologik yangiliklar qishloq xo‘jaligida mahsulotlarning sifatini oshirish, ularni ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish